ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 03.05.2026 · Принята: 27.05.2026 · Опубликована: 30.06.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/jmyxct97

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (2), 2026
www.jnculture.uz

Globallashuv davrida madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy modellari

(Modern Models of Developing Cultural Diversity in the Era of Globalization)

Charos Ibragimova

Department of Art Studies and Cultural Studies,
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture
117036, Mirzo Ulugbek, Yalangoch Street, 127A
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: ibragimova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi xalqaro etnosiyosiy nizolar misolida “identitet mojarolari”ning kelib chiqish sabablari madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Jamiyatda barqarorlikni ta’minlash va ko‘p madaniyatli muhitni boshqarishning tarixiy modellari, xususan, AQShning assimilyatsiyaga asoslangan “eritish qozoni” (melting pot) konsepsiyasi va uning WASP mafkuraviy kodi bilan bog‘liq cheklovlari tanqidiy ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, zamonaviy madaniy plyuralizm va multikulturalizm siyosatining ijtimoiy parchalanish hamda izolyatsiyalashuv kabi paradoksal xavflari yoritilib, ularning muqobili sifatida madaniyatlararo faol muloqot va hamkorlikni ko‘zda tutuvchi interkulturalizm yondashuvining afzalliklari asoslab berilgan.

Globallashuvning madaniy o‘lchami madaniy xilma-xillik rivojlanishining zamonaviy yo‘nalishlarini tahlil qilishda madaniyatning ichki dinamikasi, madaniyatlararo o‘zaro ta’sir va transmilliy madaniy makonning shakllanishi kabi omillarni hisobga olishni talab etadi. Bu jarayonda madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat assimilyatsiya yoki qarama-qarshilik nuqtai nazaridan emas, balki gibridizatsiya, transmadaniylik va madaniyatlararo hamkorlik kabi konseptual yondashuvlar orqali talqin qilinmoqda. Natijada madaniy xilma-xillikning rivojlanishi madaniyatlarning bir-birini inkor etishi emas, balki o‘zaro boyitishi va yangi madaniy shakllarni vujudga keltirishi bilan xarakterlanadi.

Kalit so‘zlar: identitet mojarosi, madaniy plyuralizm, multikulturalizm, interkulturalizm, ijtimoiy fragmentatsiya, madaniyatlararo dialog, inklyuziv madaniy siyosat.

Abstract

In this article, the root causes of “identity conflicts” are analyzed from a cultural studies perspective, using the examples of international ethno-political

conflicts in the late 20th and early 21st centuries. Historical models for ensuring social stability and managing multicultural environments are critically reviewed, specifically focusing on the assimilation-based “melting pot” concept in the United States and its limitations related to the WASP ideological code. Furthermore, the paradoxical risks of modern cultural pluralism and multicultural policies, such as social fragmentation and self-isolation, are highlighted, while justifying the advantages of the interculturalism approach, which fosters active intercultural dialogue and cooperation as a viable alternative.

The cultural dimension of globalization requires that the analysis of contemporary trends in the development of cultural diversity take into account such factors as the internal dynamics of culture, intercultural interaction, and the formation of a transnational cultural space. In this process, relationships between cultures are interpreted not only from the perspectives of assimilation or confrontation but also through conceptual approaches such as hybridity, transculturality, and intercultural cooperation. As a result, the development of cultural diversity is characterized not by the mutual negation of cultures, but by their mutual enrichment and the emergence of new cultural forms.

Keywords: identity conflict, cultural pluralism, multiculturalism, interculturalism, social fragmentation, intercultural dialogue, inclusive cultural policy.

Аннотация

В данной статье с точки зрения культурологии анализируются причины возникновения «конфликтов идентичности» на примере международных этнополитических конфликтов конца XX – начала XXI веков. Критически рассматриваются исторические модели обеспечения стабильности в обществе и управления мультикультурной средой, в частности, основанная на ассимиляции американская концепция «плавильного котла» (melting pot) и её ограничения, связанные с идеологическим кодом WASP. Также освещаются такие парадоксальные риски современной политики культурного плюрализма и мультикультурализма, как социальная фрагментация и изоляция, и обосновываются преимущества интеркультурализма как альтернативного подхода, предполагающего активный межкультурный диалог и сотрудничество.

Культурное измерение глобализации требует при анализе современных тенденций развития культурного разнообразия учитывать такие факторы, как внутренняя динамика культуры, межкультурное взаимодействие и формирование транснационального культурного пространства. В этом процессе отношения между культурами рассматриваются не только с точки зрения ассимиляции или противостояния, но и через такие концептуальные

подходы, как гибридизация, транскультурность и межкультурное сотрудничество. В результате развитие культурного разнообразия характеризуется не взаимным отрицанием культур, а их взаимным обогащением и возникновением новых культурных форм.

Ключевые слова: конфликт идентичности, культурный плюрализм, мультикультурализм, интеркультурализм, социальная фрагментация, межкультурный диалог, инклюзивная культурная политика.

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi zamonaviy dunyoda madaniy makonning tuzilishini tubdan o‘zgartirib, madaniy xilma-xillikni faqat saqlab qolish zarur bo‘lgan hodisa sifatida emas, balki uni faol rivojlantirishni talab etuvchi murakkab va dinamik jarayon sifatida talqin etishni taqozo etmoqda. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuvning tezlashuvi natijasida madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ko‘lami kengayib, madaniy chegaralarning nisbiyligi kuchaydi, bu esa madaniy ifodalar, identitetlar va qadriyatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Mazkur sharoitda madaniy xilma-xillik endilikda faqat tarixiy meros yoki an’anaviy madaniy shakllarning yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalariga singib borayotgan ijodiy va transformatsion salohiyatga ega jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuvning madaniy o‘lchami madaniy xilma-xillik rivojlanishining zamonaviy yo‘nalishlarini tahlil qilishda madaniyatning ichki dinamikasi, madaniyatlararo o‘zaro ta’sir va transmilliy madaniy makonning shakllanishi kabi omillarni hisobga olishni talab etadi. Bu jarayonda madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat assimilyatsiya yoki qarama-qarshilik nuqtai nazaridan emas, balki gibridizatsiya, transmadaniylik va madaniyatlararo hamkorlik kabi konseptual yondashuvlar orqali talqin qilinmoqda. Natijada madaniy xilma-xillikning rivojlanishi madaniyatlarning bir-birini inkor etishi emas, balki o‘zaro boyitishi va yangi madaniy shakllarni vujudga keltirishi bilan xarakterlanadi.

Zamonaviy madaniyatshunoslikda madaniy xilma-xillikni rivojlantirish masalasi raqamlashtirish, ijtimoiy inklyuziya va barqaror rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilmoqda. Raqamli texnologiyalar madaniy ifodalar va identitetlarning yangi makonini yaratib, madaniyatlarning global miqyosda tarqalishi va qayta talqin qilinishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida madaniy standartlashuv va soddalashtirish xavfini ham yuzaga chiqarmoqda. Shu bois madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini tahlil qilish nafaqat yangi imkoniyatlarni, balki ushbu jarayon bilan bog‘liq muammolar va cheklovlarni ham kompleks yondashuv asosida baholashni taqozo etadi.

Globallashuv davrida madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri madaniy merosni muhofaza qilish va uni zamonaviy madaniy jarayonlar bilan uyg‘un holda rivojlantirish masalasi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish globallashuv sharoitida madaniyatlarning standartlashuvi, madaniy xotiraning zaiflashuvi hamda an’anaviy madaniy shakllarning yo‘qolib borish xavfiga qarshi muhim qarshi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu nuqtai nazardan xalqaro miqyosda madaniy merosni aniqlash, tasniflash va muhofaza qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar madaniy xilma-xillikni saqlash va rivojlantirishning konseptual asoslarini shakllantirib kelmoqda.

1972-yilda YUNESKO tomonidan ta’sis etilgan “Jahon tabiiy va madaniy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya globallashuv davrida madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda muhim metodologik va nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu Konvensiya doirasida ishlab chiqilgan madaniy va tabiiy meros tushunchalari iloji boricha inklyuziv va universal xarakterga ega bo‘lib, madaniyatni tor milliy yoki hududiy doirada emas, balki umuminsoniy qadriyat sifatida talqin etishga imkon beradi. Bu esa globallashuv sharoitida madaniy xilma-xillikni rivojlantirishni madaniyatlararo muloqot va o‘zaro tan olish tamoyillari asosida amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Konvensiyada madaniy meros tushunchasi keng qamrovda talqin qilinib, u yodgorliklar, bino majmualari va joylar kabi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, tarix, san’at yoki fan nuqtai nazaridan favqulodda universal qiymatga ega bo‘lgan me’moriy asarlar, haykaltaroshlik va rassomchilik durdonalari, arxeologik inshootlar, yozma manbalar va g‘orlar madaniy merosning moddiy ifodalari sifatida e’tirof etiladi. Ushbu obyektlar nafaqat alohida xalqlarning tarixiy tajribasini aks ettiradi, balki global madaniy xotiraning muhim tarkibiy qismi sifatida madaniy xilma-xillikni boyitadi.


Shuningdek, bino majmualari va arxitektura ansambllari madaniyatning makon bilan uzviy bog‘liqligini ifodalab, globallashuv sharoitida madaniy identitetning vizual va ramziy belgilarini saqlab qolishga xizmat qiladi. Inson va tabiatning qo‘shma ijodi sifatida e’tirof etiladigan joylar esa madaniy xilma-xillikning antropologik va etnologik jihatlarini ochib berib, madaniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonidagi murakkab va ko‘p qatlamli xarakterini namoyon etadi. Bu holat madaniy xilma-xillikni rivojlantirishda madaniy merosni faqat statik obyekt emas, balki madaniy ma’no va qadriyatlar uzatiladigan tirik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tabiiy meros tushunchasining ham Konvensiya doirasida madaniy xilma-xillik bilan uzviy bog‘liq holda talqin etilishi globallashuv davrida madaniyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning qayta ko‘rib chiqilayotganidan dalolat beradi. Estetik, ilmiy yoki muhofaza qilish nuqtai nazaridan favqulodda universal qiymatga ega bo‘lgan tabiiy yodgorliklar, geologik va fiziografik shakllanishlar hamda biologik xilma-xillikka boy hududlar insoniyat madaniy tasavvurlarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu ma’noda tabiiy merosni saqlash ham madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Globallashuv sharoitida madaniy merosni muhofaza qilish faqat konservatsiya yoki himoya bilan cheklanib qolmay, balki uni zamonaviy madaniy amaliyotlar,

ta’lim, turizm va raqamli texnologiyalar orqali faol madaniy muomalaga kiritishni ham nazarda tutadi. Bu jarayon madaniy merosni madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning resursi sifatida talqin qilishga imkon berib, mahalliy va global madaniy jarayonlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan madaniy va tabiiy meros konsepsiyasi globallashuv davrida madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning asosiy nazariy va amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

2020-yil holatiga ko‘ra, Jahon tabiiy va madaniy merosini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya ishtirokchisi bo‘lgan 167 ta mamlakatda YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan 1121 ta meros obyekti mavjud bo‘lib, ular dunyoning umuminsoniy ahamiyatga ega madaniy, tabiiy va aralash merosini ifodalaydi. Ushbu obyektlardan 869 tasi madaniy, 213 tasi tabiiy va 39 tasi aralash meros obyektlaridir [1]. Ushbu meros obyektlarining yer yuzidagi tarqalishi 3.1-rasmda ko‘rsatilgan, sariq nuqtalar madaniy obyektlarni, yashil nuqtalar tabiiy obyektlarni, sariq va yashil nuqtalar aralash obyektlarni va qizil nuqtalar xavf ostida qolgan Jahon merosi obyektlarini bildiradi.



1-rasm. 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab Jahon merosi obyektlarining taqsimlanishi.

Globallashuv sharoitida madaniy xilma-xillikni rivojlantirish masalasi ko‘p madaniyatli jamiyatlar fenomenini ilmiy jihatdan chuqur tahlil etishni talab etadi. Chunki zamonaviy davrda siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lgan aksariyat davlatlar endilikda madaniy jihatdan bir xil tarkibga ega bo‘lgan monomadaniy tuzilma emas, balki turli etnik, milliy, diniy va lingvistik guruhlar birgalikda yashaydigan murakkab ijtimoiy-madaniy makon sifatida shakllanmoqda. Shu bois “zamonaviy davlat” tushunchasi ko‘proq ko‘p qatlamli madaniy struktura, madaniyatlararo muloqot va xilma-xil identifikatsiya shakllari bilan tavsiflanadi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida, ayniqsa sanoat inqilobidan keyin, keyinchalik esa Ikkinchi jahon urushi davri va undan so‘ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy siljishlar natijasida dunyo miqyosida keng ko‘lamli migratsiya jarayonlari kuchaydi. Ta’qiblardan qochish, iqtisodiy imkoniyatlar izlash, mehmon ishchi sifatida rivojlangan mamlakatlarga ko‘chib o‘tish kabi omillar aholining hududiy joylashuvini tubdan o‘zgartirdi. Natijada ilgari nisbatan bir jinsli bo‘lgan jamiyatlar ham ko‘p madaniyatli makonga aylandi. Bugungi globallashgan dunyoda mutlaq monomadaniy siyosiy jamiyat mavjudligi deyarli istisno holatga aylangani shundan dalolat beradi. Turli manbalarda keltirilishicha, hozirgi dunyoda mavjud davlatlar yuzlab til guruhlari va minglab etnik o‘ziga xosliklarni qamrab oladi, bu esa insoniyat madaniy makonining nihoyatda rang-barangligini ko‘rsatadi.

Biroq madaniy xilma-xillikning kengayishi faqat boylik va imkoniyat manbai bo‘libgina qolmay, balki murakkab ijtimoiy-madaniy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Turli madaniy qadriyatlar, tarixiy xotira, diniy e’tiqodlar va identifikatsiya modellari bir makonda to‘qnashganda integratsiya va muvofiqlashtirish masalalari dolzarb tus oladi. Ko‘plab jamiyatlarda kuzatilayotgan etnik va diniy nizolar aynan shu jarayonlarning yetarli darajada boshqarilmaganidan dalolat beradi. Ayrim ozchilik guruhlar tarixiy adolatsizlik yoki mustamlakachilik merosi tufayli yo‘qotilgan siyosiy mustaqillikni tiklashga intilsa, boshqalari

madaniy va iqtisodiy tenglikni talab qiladi. Bu jarayonlar madaniy xilma-xillikning nafaqat ijtimoiy integratsiya, balki madaniy adolat va tenglik tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Empirik tadqiqotlar ham mazkur muammoning jiddiyligini tasdiqlaydi. Jumladan, Gurr tomonidan olib borilgan izlanishlar natijalariga ko‘ra, XX asr oxirlarida dunyoning turli hududlarida etnik ziddiyatlar asosida ko‘plab qurolli to‘qnashuvlar yuzaga kelgan. Yuzlab milliy va etnik guruhlar siyosiy yoki iqtisodiy kamsitish holatiga duch kelgani, ularning aksariyati o‘z madaniy o‘ziga xosligini saqlash va himoya qilish maqsadida faol ijtimoiy-siyosiy harakatlarga kirishgani aniqlangan[2, 18-b.].

Bunday vaziyatda madaniy identitetni tan olish va huquqiy jihatdan kafolatlash mexanizmlari mavjud bo‘lmagan jamiyatlarda norozilik kayfiyati asta-sekin radikal shakllarga o‘tishi mumkinligi kuzatiladi.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, bunday mojarolarni faqat siyosiy yoki iqtisodiy omillar bilan izohlash yetarli emas. Ularning tub mohiyatida madaniy o‘zlikni tan olish, ramziy qadriyatlarni saqlash, tarixiy xotira va an’analarni davom ettirish kabi fundamental ehtiyojlar yotadi. Demak, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari, avvalo, turli madaniy guruhlarning teng huquqli ishtirokini ta’minlash, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish hamda inklyuziv madaniy siyosatni shakllantirishga qaratilishi lozim.

Shu ma’noda ko‘p madaniyatli jamiyatni boshqarishning samarali modeli sifatida integratsiya, multikulturalizm va madaniyatlararo dialog tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar madaniy farqlarni yo‘q qilish yoki assimilyatsiya qilish emas, balki ularni ijtimoiy boylik sifatida e’tirof etib, har bir guruhning madaniy merosi va identitetini saqlashga imkon yaratadi. Natijada madaniy xilma-xillik ijtimoiy ziddiyatlar manbai emas, balki barqaror taraqqiyot va madaniy innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi omilga aylanadi.

Gurr o‘tkazgan empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, 1990-yillarning boshlarida dunyoning turli burchaklarida etnik mojarolardan kelib chiqqan yigirma ikkita qaynoq urush sodir bo‘lgan. Mazkur tadqiqotga ko‘ra, 1993-yil holatiga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab 233 ta milliy guruh va etnik ozchiliklar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati kamsitish va separatistik siyosat nishoniga aylangan va shuning uchun o‘zlarining ijtimoiy manfaatlari va o‘ziga xosliklarini saqlab qolish va himoya qilish uchun o‘zlarini tashkil etgan, faol siyosiy pozitsiyani egallagan. Ushbu guruhlarning sakson foizi iqtisodiy kamsitish (147 guruh) yoki siyosiy kamsitish (168 guruh) ning salbiy oqibatlarini boshdan kechirgan. Ba’zi guruhlar boshqalarga qaraganda biroz ko‘proq afzalliklarga ega bo‘lsa-da, aksariyati o‘z mamlakatlaridagi ko‘pchilik guruhiga nisbatan iqtisodiy jihatdan qashshoq va siyosiy jihatdan kam vakillikka ega edi [3, 6-b.].

Etnik va madaniy guruhlar faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning aksariyati dastlab o‘z talab va munosabatlarini institutsional hamda tinch siyosiy shakllar orqali ifoda etishga intiladi. Ya’ni madaniy huquqlarni tan olish, teng vakillikni ta’minlash, til va an’analarni saqlash kabi ehtiyojlar avvalo muzokara, norozilik namoyishlari va fuqarolik tashabbuslari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Biroq davlat siyosatida inklyuziv mexanizmlarning yetishmasligi, madaniy identitetni e’tirof etmaslik yoki tizimli kamsitish holatlarining davom etishi ayrim hollarda norozilik kayfiyatining radikallashuviga olib keladi. Natijada ijtimoiy-madaniy ziddiyatlar qo‘zg‘olonlar, qurolli qarama-qarshiliklar yoki terroristik harakatlar shaklini olishi mumkin.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida kuzatilgan ko‘plab mojarolar aynan madaniy va etnik omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘lganini ko‘rish mumkin. Jumladan, Shimoliy Irlandiyadagi konfessional ziddiyatlar, Sharqiy Timor xalqi mustaqillik harakati, Falastin muammosi yoki Janubiy Sudandagi to‘qnashuvlar madaniy o‘zlikni tan olish, tarixiy adolatni tiklash va siyosiy suverenitetga erishish

talablari bilan uzviy aloqada kechgan. Xuddi shuningdek, Bosniya va Gertsegovina hamda Chechenistondagi voqealar ham etnik identifikatsiya va hududiy-madaniy mansublik masalalarining keskinlashuvi oqibatida yuzaga kelgan mojarolar sifatida baholanadi[3, 5-b.]. Bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, madaniy omillar e’tibordan chetda qolgan sharoitda ijtimoiy ziddiyatlar tezda chuqur va og‘riqli tus oladi.

Mazkur turdagi to‘qnashuvlarning xususiyati shundaki, ular ko‘pincha boshqa siyosiy yoki iqtisodiy mojarolarga nisbatan ko‘proq insoniy talafotlarga olib keladi. Chunki bunday vaziyatlarda masala faqat manfaatlar to‘qnashuvi emas, balki madaniy o‘zlik, tarixiy xotira va ramziy qadriyatlar himoyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan bu hodisa “identitet mojarosi” sifatida talqin qilinib, unda guruhlar o‘z mavjudligini saqlab qolish uchun kurashadi. Natijada nizolar murosaga kelishdan ko‘ra keskinlashishga moyil bo‘ladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr tajribasi ham etnik mojarolar keng ko‘lamli gumanitar inqirozlarni keltirib chiqarishini ko‘rsatdi. Ommaviy qirg‘inlar, majburiy ko‘chirishlar va migratsiya to‘lqinlari ko‘plab jamiyatlarning madaniy tarkibini tubdan o‘zgartirdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1990-yillar boshida dunyodagi millionlab migrantlarning katta qismi aynan zulm, kamsitish va etnosiyosiy mojarolar oqibatida o‘z yashash hududini tark etishga majbur bo‘lgan. Bu esa madaniy xilma-xillikning tabiiy evolyutsiyasi emas, balki majburiy va travmatik shaklda qayta taqsimlanishiga olib kelgan.

Shu jihatdan qaraganda, globallashuv davrida madaniy xilma-xillikni rivojlantirish masalasi faqat madaniyatlar sonining ortishi yoki ularning bir makonda mavjudligi bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu jarayon madaniy guruhlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta’minlash, ularning identitetini tan olish hamda madaniyatlararo muvozanatni saqlashni talab etadi. Aks holda madaniy rang-baranglik ijtimoiy boylik manbai bo‘lish o‘rniga ziddiyat va beqarorlik omiliga aylanishi mumkin.

Demak, ko‘p madaniyatli jamiyatlarda barqaror taraqqiyotni ta’minlash uchun madaniy siyosatning zamonaviy yo‘nalishlari integratsiya, bag‘rikenglik, madaniyatlararo dialog va teng huquqlilik tamoyillariga asoslanishi lozim. Faqat shunday sharoitdagina madaniy xilma-xillik destruktiv to‘qnashuvlar manbai emas, balki ijtimoiy hamjihatlik va madaniy innovatsiyalarni rag‘batlantiruvchi konstruktiv resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Globallashuv davrida ko‘p madaniyatli jamiyatlarni boshqarishning turli modellari shakllangan bo‘lib, ulardan eng ko‘p muhokama qilingan tarixiy tajribalardan biri Amerika Qo‘shma Shtatlarida vujudga kelgan “eritish qozoni” (melting pot) konsepsiyasidir. Ushbu model turli irqiy, etnik va dini guruhlarning yagona siyosiy hamjamiyat doirasida integratsiyalashuvi jarayonini ifodalash uchun qo‘llanilgan bo‘lib, dastlab milliy birlik va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashga qaratilgan madaniy strategiya sifatida talqin etilgan.

Amerika qit’asiga dastlabki ko‘chish jarayonlaridan boshlab turli xalqlar, madaniyatlar va konfessiyalar vakillari yangi ijtimoiy makonda birgalikda yashashga majbur bo‘ldilar. Yevropadan kelgan muhojirlar iqtisodiy omon qolish va yangi hayot qurish ehtiyoji tufayli o‘zaro hamkorlik qilishga intilgan bo‘lsalar-da, bir vaqtning o‘zida resurslar va mavqe uchun kurash ham olib borildi. Bu jarayon natijasida yangi iqtisodiy va ijtimoiy tartib shakllandi. Biroq mazkur tizimning shakllanishi ijtimoiy tenglik asosida emas, balki irqiy va madaniy ierarxiya bilan kechganini alohida ta’kidlash lozim. Qullik instituti, segregatsiya va etnik ajratish amaliyoti Amerika jamiyatining uzoq tarixiy bosqichida muhim rol o‘ynab, madaniy integratsiya jarayonining murakkab va ziddiyatli tus olishiga sabab bo‘ldi.

Mazkur tajriba shuni ko‘rsatadiki, madaniy xilma-xillik sharoitida yagona milliy identitetni shakllantirish har doim ham tabiiy va uyg‘un jarayon sifatida kechmaydi. Aksincha, bu jarayon ko‘pincha madaniy assimilyatsiya, ya’ni ozchilik guruhlarning o‘z an’ana va qadriyatlaridan voz kechib, dominant madaniyatga

moslashishini talab etuvchi siyosat orqali amalga oshiriladi. Shu ma’noda “eritish qozoni” modeli turli madaniyatlarning teng huquqli muloqotiga emas, balki ularni yagona mafkuraviy-madaniy qolipga singdirishga qaratilgan integratsion mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi[4, 200-b.].

Amerika jamiyatini o‘rgangan A. de Tokvillning kuzatuvlari ham ushbu jarayonning murakkabligini tasdiqlaydi. U dastlab yangi qit’ada shakllangan siyosiy hamjamiyatni shaxs erkinligi va fuqarolik birdamligiga asoslangan demokratik model sifatida baholagan bo‘lsa-da, keyinchalik bu tizimning ichki ziddiyatlarini, xususan, ijtimoiy tengsizlik va madaniy tafovutlar bilan bog‘liq muammolarni ham qayd etadi [5, 199-b.]. Tokvill ta’riflagan ko‘ngillilik, tashabbuskorlik va mas’uliyatga asoslangan fuqarolik jamiyati g‘oyasi XX asr oxirlaridan boshlab multikulturalizm nazariyasi doirasida qayta ko‘rib chiqilib, madaniy xilma-xillikni tan olish va saqlash masalasi yanada dolzarb tus oldi.

Tokvill Amerikaga uning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tashkiloti, Yevropaning qattiq ierarxik tartibiga nisbatan, shaxsga qaratilgan birdamlik tamoyiliga asoslangan degan oldindan o‘ylangan fikr bilan borgan, keyinchalik o‘zining dastlabki hukmidan voz kechib, “Amerikada demokratiya” asarida o‘z kuzatuvlarini tizimlashtirgan. Tokvilning so‘zlariga ko‘ra, bu qit’aga ko‘chib o‘tgan, o‘z an’analari va odatlarini qoldirib, ko‘ngillilik, tashabbuskorlik va mas’uliyatga asoslangan yangi siyosiy hamjamiyatni shakllantirgan [5, 199-b.]. Aynan Tokvillning ongidagi ushbu tushunchalar XX asrning so‘nggi choragidan beri multikulturalizm va multikulturalizmga oid adabiyotlar to‘plamida shubha ostiga qo‘yilgan.

Tarixiy jarayonda anglosakson-protestant madaniyati (WASP)ning dominant mavqega ega bo‘lishi Amerika jamiyatida o‘ziga xos mafkuraviy-madaniy kodni shakllantirdi. Mazkur kod boshqa etnik va dini guruhlarning ijtimoiy moslashuvini aynan shu qadriyatlar tizimiga singish orqali amalga oshirishni talab etdi. Natijada

“amerikalashtirish” siyosati immigrantlarning eski an’ana va identitetidan voz kechishini tezlashtirishga qaratilgan mexanizm sifatida faol qo‘llanildi [6, 89-b.].

Ushbu yondashuv nazariy jihatdan tenglik va birodarlik g‘oyalariga asoslangan bo‘lsa-da, amaliyotda ko‘pincha madaniy xilma-xillikning qisqarishiga, ya’ni etnik o‘ziga xosliklarning zaiflashuviga olib keldi.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, “eritish qozoni” metaforasi madaniy integratsiyaning assimilyativ modelini ifodalaydi. Bunda madaniyatlar o‘z alohidaligini saqlab qolgan holda birgalikda mavjud bo‘lishi emas, balki yagona “yangi” madaniyat tarkibida erib ketishi ko‘zda tutiladi. Keyinchalik ilmiy adabiyotlarda ushbu metaforaning o‘rnini “salat idishi”, “mozaika”, “kaleydoskop” yoki “madaniy kamalak” kabi tushunchalar egallay boshladi. Bu ramziy ifodalar jamiyatni turli rang va shakllarning uyg‘unligi sifatida tasavvur qilib, madaniy farqlarni saqlash va ularni boylik sifatida e’tirof etish g‘oyasini ilgari suradi. Mazkur yondashuvlar zamonaviy multikulturalizm va madaniyatlararo dialog konsepsiyalarining nazariy asosini tashkil etadi.

Shu bois globallashuv davrida madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari tarixiy assimilyatsiya modellarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni, ularning o‘rniga inklyuziv va pluralistik madaniy siyosatni shakllantirishni talab etadi. Amerika tajribasi shuni ko‘rsatadiki, madaniyatlarni majburiy ravishda “eritish” barqarorlikni kafolatlamaydi; aksincha, madaniy identitetni tan olish, hurmat qilish va madaniyatlararo muloqotni qo‘llab-quvvatlashgina ko‘p madaniyatli jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik va madaniy barqarorlikni ta’minlay oladi. Demak, zamonaviy davrda madaniy xilma-xillikni rivojlantirish strategiyasi assimilyatsiyadan ko‘ra pluralizm va madaniy hamkorlik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida ko‘p madaniyatli jamiyatlarni boshqarishning nazariy va amaliy modellaridan biri sifatida madaniy

plyuralizm va multikultural siyosat konsepsiyalari keng tarqaldi. Mazkur yondashuv, avvalo, jamiyat tarkibidagi etnik, diniy va madaniy guruhlarning o‘ziga xosligini tan olish, ularning madaniy huquqlarini himoya qilish hamda teng ishtirokini ta’minlash orqali ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, ayrim liberal mutafakkirlar madaniy plyuralizmni demokratik tuzumning tabiiy davomi sifatida talqin qilib, u chetga surilgan yoki marginal holatdagi guruhlarni siyosiy va ijtimoiy tizimga inklyuziv tarzda qo‘shish imkonini beradi [7, 149-b.], degan fikrni ilgari suradilar.

Biroq amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘p madaniyatli siyosatning mazkur normativ maqsadlari doimo ham kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, ayrim hollarda madaniy identitetga asoslangan siyosiy talablar jamiyatni birlashtirish emas, balki segmentatsiya qilish, ijtimoiy makonni alohida “madaniy orollar”ga bo‘lib yuborish xavfini kuchaytiradi. Paradoks shundaki, dastlab tenglik va integratsiyani ko‘zlagan multikulturalizm ba’zan turli guruhlar tomonidan separatistik yoki eksklyuziv talablarni asoslash vositasiga aylantiriladi. Etnik jamoa yetakchilari, irqiy ustunlik g‘oyalarini ilgari suruvchi harakatlar yoki diniy fundamentalistik oqimlar “madaniy farqlilikni saqlash” shiori ostida o‘zini izolyatsiya qilish, umumiy fuqarolik maydonidan chiqib ketish yoki boshqalarga nisbatan imtiyozli mavqe talab qilishga intiladilar. Bu esa madaniy xilma-xillikni rivojlantirish o‘rniga ijtimoiy fragmentatsiyani kuchaytirishi mumkin.

Mazkur holat multikulturalizm nazariyasining ichki cheklovlarini ham ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, ko‘p madaniyatli yondashuv tarafdorlari ko‘pincha liberal siyosiy tartibni barqaror va o‘zgarmas asos sifatida qabul qiladilar. Ular davlat barcha madaniy talablarni qondirgan taqdirda ham umumiy liberal-demokratik qadriyatlar avtomatik ravishda saqlanib qoladi, degan soddalashtirilgan tasavvurga tayanadilar. Holbuki, identitetga asoslangan siyosat shakllari, xususan etnik, diniy yoki irqiy mobilizatsiya, o‘z mohiyatiga ko‘ra

eksklyuziv xarakter kasb etishi, ya'ni "biz" va "ular" chegarasini keskinlashtirishi mumkin. Bunday vaziyatda umumfuqarolik birdamligi o'rniga guruhiy sadoqat ustuvor bo'lib, demokratik institutlarning inklyuziv tabiatiga putur yetadi.

Shu ma'noda, hozirgi davrda multikulturalizm konsepsiyasi tobora interkulturalizm yondashuvi bilan boyitilmoqda. Agar klassik multikulturalizm madaniyatlarning yonma-yon mavjudligini e'tirof etish bilan cheklangan bo'lsa, interkulturalizm ular o'rtasidagi faol muloqot, hamkorlik va o'zaro ta'sirni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa madaniy farqlarni ijtimoiy ajralish omili emas, balki jamiyat taraqqiyotining resursi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Mazkur yo'nalish madaniy xilma-xillikni rivojlantirishning zamonaviy strategiyalaridan biri sifatida, ayniqsa globallashuv sharoitida dolzarblik kasb etmoqda.

References

1. UNESCO World Heritage Centre. "World Heritage." Accessed January 30, 2026. https://whc.unesco.org/en/about/.
2. Kymlicka, Will. *Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights*. Oxford: Clarendon Press, 1995.
3. Gurr, Ted Robert, and Barbara Harff. *Ethnic Conflicts in World Politics*. Oxford: Oxford University Press, 1994.
4. Bali, Ali Şafak. *Çokkültürlülük ve Sosyal Adalet* [Multiculturalism and Social Justice]. Konya: Çizgi Kitabevi, 2001. (in Turkish)
5. İrem, Nazım. "Eritme Potasından Eriyen Pota'ya: XXI. Yüzyılın Eşiğinde Amerika" [From the Melting Pot to the Melted Pot: America on the Threshold of the 21st Century]. *Doğu Batı Düşünce Dergisi*, no. 32 (June–July 2005). (in Turkish)
6. Yürüşen, Melih. *Çeşitlilikten Özgürlüğe: Çokkültürlülük ve Liberalizm* [From Diversity to Freedom: Multiculturalism and Liberalism]. Ankara: LDT Yayınları, 1998. (in Turkish)
7. Appiah, Kwame Anthony. "Identity, Authenticity, Survival: Multicultural Societies and Social Reproduction." In *Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition*, edited by Amy Gutmann. Princeton: Princeton University Press, 1996.